TASDIQLAYMAN
O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i
_____ I.Madatov
2025-yil 14-oktabr

Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti
1-bosqich Musiqa ta'limi yo‘nalishi talabalariga 1-semestr uchun
« Maktabgacha ta'limda musiqa o'qitish metodikasi » fanidan yakuniy nazorat savollari
Imtihon shakli: yozma

Mavzu raqami	1-QISM “OSON SAVOLLAR” deb nomalanadi va semestrda o‘qitilishi rejalashtirilgan mavzularning kirish qismidan asosan nazariy savollardan iborat bo’ladi	2-QISM “ODDIY SAVOLLAR” deb nomalanadi va semestrda o‘qitilishi rejalashtirilgan mavzularning 1-rejasidan asosan mulohazaviy savollardan iborat bo’ladi	3-QISM “MURAKKAB SAVOLLAR” deb nomalanadi va semestrda o‘qitilishi rejalashtirilgan mavzularning 2-rejasidan asosan qoidalar, teoremalar, kabi savollardan iborat bo’ladi	4-QISM “MURAKKAB SAVOLLAR 2” deb nomalanadi va semestrda o‘qitilishi rejalashtirilgan mavzularning 3-rejasidan asosan tendensiyalar, paradigmalar, konsepsiyalar kabi savollardan iborat bo’ladi	5-QISM “QIYIN SAVOLLAR” deb nomalanadi va semestrda o‘qitilishi rejalashtirilgan mavzularning xulosa yani yakuniy qismidan asosan talabani mustaqil fikrlashga, mavzuni to’liq anglashga yo’naltiradigan savollardan iborat bo’ladi
1	"Maktabgacha ta'limda musiqa tarbiyasi" fanining asosiy maqsadi nima?	Nima uchun maktabgacha yoshdagi bolalarda musiqiy ijodkorlikni rivojlantirish muhim?	5-6 yoshli bolalar bilan "Mening asbobim" loyihasini qanday tashkil etgan bo'lardingiz?	An'anaviy va STEAM yondashuviga asoslangan musiqiy mashg'ulotlarning afzallik va kamchiliklarini qiyosiy tahlil qiling.	O'zbekiston maktabgacha ta'lim tizimida bolalar musiqiy ijodkorligini rivojlantirishning hozirgi holatini tanqidiy baholang va takomillashtirish yo'llarini taklif qiling.
1	Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojida musiqaning qanday ahamiyati bor?	Improvizatsiya bolalar ijodkorligiga qanday ta'sir qiladi? Misollar bilan izohlang.	Bolalarga "Quyosh haqida qo'shiq" ijodiy topshirig'ini berish metodikasini tavsiflang.	Nima uchun ba'zi bolalar musiqiy improvizatsiyada faol qatnashadi, boshqalari esa passiv bo'ladi? Sabablarini tahlil qiling.	Maktabgacha ta'limda STEAM yondashuvini keng joriy etish uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqing.
2	Musiqiy ijodkorlik tushunchasiga ta'rif bering.	Bolalarda kreativlikni rag'batlantirish uchun musiqa mashg'ulotlarida qanday usullar qo'llaniladi?	"Musiqiy laboratoriya" mashg'ulotida tovush to'lqinlarini qanday sodda tajribalar orqali tushuntirish mumkin?	Musiqiy ijodkorligi yuqori bo'lgan bola va sust rivojlangan bola bilan ishlash metodikasidagi farqlarni tahlil qiling.	"Musiqa orqali bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirish" mavzusida mualliflik dasturi loyihasini taklif qiling.
2	Improvizatsiya nima?	Musiqiy o'yinlar va ertaknamo vaziyatlar bolalar rivojiga qanday ta'sir ko'rsatadi?	6-7 yoshli bolalar bilan "Bizning musiqiy spektakl" loyihasini amalga oshirish rejasini tuzing.	Bayram tadbirlariga tayyorgarlik jarayonida bolalarda kuzatiladigan stress va hayajonni kamaytirish usullarini tahlil qiling.	Zamonaviy texnologiyalardan (interaktiv doska, mobil ilovalar) foydalangan holda "Tovush kashfiyotchilari" mashg'ulotining takomillashtirilgan versiyasini loyihalashtiring.
2	STEAM yondashuvining qisqartmasi qanday sohalarni anglatadi?	Cholg'u asboblarida ijro etish bolalarning qanday qobiliyatlarini rivojlantiradi?	Navro'z bayrami munosabati bilan tayyorlov guruhi bolalari uchun tadbir ssenariysining qisqacha rejasini tuzing.	Turli yosh guruhlarida (kichik, o'rta, katta) tarbiyachining musiqa mashg'ulotlaridagi ishtiroki darajasidagi farqlarni tahlil qiling.	Turli millat bolalari (o'zbek, rus, qozoq, tojik) birga ta'lim oladigan inklyuziv guruh uchun "Ko'p madaniyatli musiqa festivali" loyihasini ishlab chiqing.
3	Maktabgacha ta'limda qanday bayramlar nishonlanadi? (3 ta misol)	Kuylash va qo'shiq ijod qilish orqali bolalarda qanday ko'nikmalar shakllanadi?	Yangi yil bayramida katta guruh bolalari bilan o'tkaziladigan musiqiy o'yinlardan ikkitasini tavsiflang.	Tarbiyachi va musiqa rahbarining vazifalaridagi o'xshashlik va farqlarni tahlil qiling.	Maktabgacha ta'lim muassasasi va bolalar musiqa maktabi o'rtasidagi hamkorlik modelini ishlab chiqing.
3	Musiqa rahbari va tarbiyachi hamkorligining ahamiyati nimada?	Musiqa o'qituvchisi ijodiy muhit yaratish uchun nimalarga e'tibor berishi kerak?	8-mart bayrami uchun kichik guruh bolalari bilan tayyorlanadigan sahna ko'rinishi ssenariysini yozing.	Ertalabki gimnastikani musiqa bilan va musiqasiz o'tkazishning bolalar organizmiga ta'sirini qiyosiy tahlil qiling.	Iqtidorli bolalarni aniqlash va ularning musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirish tizimini taklif qiling.
3	Ertalabki gimnastikani musiqa jo'rligida o'tkazishning afzalligi nimada?	Bayram ertaliklarining bolalar tarbiyasidagi ahamiyatini tushuntiring.	Musiqa rahbari bilan hamkorlikda o'tkaziladigan "Ochiq musiqa darsi" rejasini tuzing.	Har xil xarakterdagi musiqalar (marsh, vals, polka) ostida bajariladigan mashqlarning bolalar rivojiga ta'sirini tahlil qiling.	Maktabgacha ta'limda musiqiy tarbiya samaradorligini baholashning muqobil usullarini ishlab chiqing.
4	Vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda qaysi davlat ramzi muhim o'rin tutadi?	Musiqa mashg'ulotlarining qanday shakllari mavjud?	Tarbiyachi kun davomida bolalarning musiqiy ko'nikmalarini mustahkamlash uchun qanday faoliyatlarni tashkil qilishi mumkin? (3 ta misol)	Vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda turli musiqa janrlarining (mars, lirik qo'shiq, xalq qo'shig'i) ta'sirini qiyosiy tahlil qiling.	"Ota-onalar uchun musiqiy tarbiya maktabi" loyihasining konsepsiyasini yarating.
4	Milliy meros tushunchasiga ta'rif bering.	Tadbir ssenariysini tuzishning asosiy bosqichlarini izohlang.	Ertalabki gimnastika uchun 5-6 yoshli bolalarga mo'ljallangan 5 ta mashqdan iborat kompleks taklif qiling.	Ertaklar va qo'shiqlar orqali bolalarda shakllantiriladigan axloqiy fazilatlarni qiyosiy tahlil qiling.	Bolalar bog'chasida "Musiqa terapiyasi xonasi"ni tashkil etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqing.
5	Folklor nima va uning qanday janrlari bor? (3 ta)	Navro'z bayrami ssenariysida qanday milliy elementlardan foydalanish mumkin?	Kichik guruh bolalari uchun "Quyoshga salom" nomli ertalabki gimnastika mashg'ulotini qanday o'tkazasiz?	Nima uchun ayrim bolalar milliy musiqa va folklor namunalariga qiziqish bildiradi, boshqalari esa zamonaviy musiqaga ko'proq qiziqadi? Sabablarini tahlil qiling.	Autizmli bola bilan ishlash uchun individual musiqiy terapiya dasturini tuzing.
5	Inklyuziv ta'lim deganda nimani tushunasiz?	Yangi yil bayrami ssenariysining o'ziga xos xususiyatlari nimada?	Musiqa tanlash mezonlariga asoslanib, ertalabki gimnastikaning kirish qismi uchun mos kuy tavsiya qiling va sababini tushuntiring.	Inklyuziv guruhda turli nuqsonlari bo'lgan bolalar (eshitish, ko'rish, intellektual) bilan musiqiy terapiya usullarining farqlarini tahlil qiling.	Eshitish qobiliyatida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maxsus moslashtirilgan musiqiy o'yinlar to'plamini yarating.
6	Musiqiy terapiya nima maqsadda qo'llaniladi?	8-mart bayrami tadbirida qanday tarbiyaviy g'oyalar aks ettiriladi?	"Vatan" mavzusida katta guruh bolalari bilan o'tkaziladigan musiqa darsi ssenariysini tuzing.	Autizmli bolada musiqiy terapiya va logopedik mashg'ulotlarning o'zaro bog'liqligini tahlil qiling.	Maktabgacha ta'lim muassasasida "Milliy cholg'ular orkestri"ni tashkil etish loyihasini ishlab chiqing.
6	Autizm spektr buzilishi bo'lgan bolalarda qanday qiyinchiliklar kuzatiladi?	Musiqa rahbari va tarbiyachi o'rtasidagi hamkorlikning ahamiyatini tushuntiring.	"Alla aytaylik" mashg'ulotida bolalarga allaning mazmunini qanday tushuntirasiz?	Bolalarning musiqiy rivojlanishini baholashda sub'ektiv va ob'ektiv baholash usullarining afzallik va kamchiliklarini tahlil qiling.	"Bolalar qo'shiqlari festivali"ni tashkil etish konsepsiyasini yarating.
6	Monitoring va baholash o'rtasidagi farq nima?	Tarbiyachi musiqa mashg'ulotlarida qanday ishtirok etadi?	"O'zbekiston - Vatanim manim" qo'shig'ini o'rgatish metodikasini bosqichma-bosqich yoriting.	O'zbekiston va Finlyandiya maktabgacha musiqa ta'limi tizimlarini qiyosiy tahlil qiling.	Musiqiy tarbiya orqali bolalarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishning innovatsion usullarini taklif qiling.
7	Musiqiy rivojlanish ko'rsatkichlari sifatida nimalar kuzatiladi?	Kichik guruhlarda tarbiyachining musiqiy mashg'ulotdagi roli qanday?	Xalq ertaklari asosida kichik sahna ko'rinishini tayyorlash jarayonini tavsiflang.	O'zbekiston va Singapur maktabgacha musiqa ta'limi tizimlarining o'xshash va farqli jihatlarini tahlil qiling.	3-7 yoshli bolalar uchun bosqichma-bosqich musiqiy rivojlanish monitoringi tizimini ishlab chiqing.
8	Estetik did tushunchasiga ta'rif bering.	O'rta va katta guruhlarda tarbiyachining vazifalari qanday farqlanadi?	"Oq terakmi, ko'k terak" o'yinini musiqiy jihatdan qanday boyitish mumkin?	Yaponiya va AQSh maktabgacha musiqa ta'limi yondashuvlaridagi farqlarni tahlil qiling.	An'anaviy va raqamli ta'lim vositalarini uyg'unlashtirgan innovatsion musiqa mashg'uloti ssenariysini yarating.
9	Musiqa tinglash faoliyatining psixologik ahamiyati nimada?	Tarbiyachi kun davomida bolalarning musiqiy ko'nikmalarini qanday mustahkamlaydi?	Eshitish qobiliyatida nuqsoni bo'lgan bola bilan "Vibratsiya orqali musiqa sezish" mashg'ulotini qanday tashkil qilasiz?	Kodály, Orff va Dalkroz metodikalarining maktabgacha ta'limda qo'llanilish imkoniyatlarini qiyosiy tahlil qiling.	Bolalar bog'chasida "Musiqiy ertaklar teatri"ni tashkil etish loyihasini taklif qiling.
9	Musiqiy-ritmik harakatlar nima?	Ertalabki gimnastikani musiqa jo'rligida o'tkazishning nazariy asoslarini tushuntiring.	Ko'zi ojiz bola bilan "Tovushli manzara" yaratish mashg'ulotini tavsiflang.	Musiqiy-ritmik tarbiyaning bolaning jismoniy va psixik rivojlanishiga ta'sirini tahlil qiling.	Turli yosh guruhlari uchun moslashtirilgan "Ritmik gimnastika" majmualarini ishlab chiqing.
10	Raqs elementlariga misollar keltiring (3 ta).	Musiqa jo'rligi ertalabki gimnastikada qanday funksiyalarni bajaradi?	Aqli zaif bola bilan "Qo'shiqni davom ettir" o'yinini qanday o'tkazish mumkin?	Nima uchun ayrim bolalar ritmni yaxshi his qiladi, boshqalari esa qiyinchilikka duch keladi? Sabablarini tahlil qiling.	Maktabgacha ta'lim tashkiloti bitiruvchisining musiqiy kompetensiyalarini baholash mezonlarini ishlab chiqing.
10	Ritmik o'yinlarning bolalar rivojidagi o'rni qanday?	Ertalabki gimnastika mashg'ulotining bosqichlarini izohlang.	Autizmli bola bilan "Dirijor o'yini" orqali diqqatni jamlashni qanday mashq qildirasiz?	Musiqa tinglash madaniyati shakllangan va shakllanmagan bolalarning xulq-atvoridagi farqlarni tahlil qiling.	Finlyandiya, Singapur va Yaponiya tajribalaridan kelib chiqib, O'zbekiston maktabgacha ta'limi uchun integrativ musiqiy tarbiya modelini taklif qiling.
10	Karl Orf qanday metodika asoschisi?	Musiqa tanlashda qanday mezonlarga e'tibor berish kerak?	Bolalarning musiqiy rivojlanishini kuzatish uchun kuzatuv varaqasi namunasini tuzing.	Bayram tadbirlarida faol ishtirok etadigan va etmaydigan bolalarning psixologik xususiyatlarini tahlil qiling.	"Musiqa va matematika" integratsiyasiga asoslangan mashg'ulot loyihasini taklif qiling.
11	Emil Jak-Dalkroz qanday metodika yaratgan?	Musiqa orqali vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishning ahamiyati nimada?	4-5 yoshli bolalarning ritm tuyg'usini baholash uchun qanday amaliy topshiriqdan foydalanasiz?	Kichik guruh va tayyorlov guruhi bolalarining musiqiy idrok darajasidagi farqlarni tahlil qiling.	Qishloq joylardagi maktabgacha ta'lim muassasalari uchun mobil musiqiy ta'lim dasturini ishlab chiqing.
12	Finlyandiya maktabgacha ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyati nimada?	Davlat madhiyasini kuylash bolalarda qanday tuyg'ularni shakllantiradi?	Musiqiy-ritmik mashg'ulotda "Bahor va qishloq hayoti" mavzusida qizdirish mashqlarini tavsiflang.	Musiqa rahbari va tarbiyachi hamkorligining samarali va samarasiz bo'lish sabablarini tahlil qiling.	"Bobolar merosi" - milliy musiqa merosini bolalarga yetkazishning innovatsion usullarini taklif qiling.
12	Singapurda musiqiy ta'limda qanday yondashuv qo'llaniladi?	Folklor elementlarining didaktik ahamiyatini tushuntiring.	"Quyonchalar va bo'ri" musiqiy o'yinini o'tkazish metodikasini tushuntiring.	Ertalabki gimnastikada musiqadan foydalanishning bolalar diqqati va faolligiga ta'sirini tahlil qiling.	Inklyuziv guruhda turli nuqsonlari bo'lgan bolalar bilan birgalikda o'tkaziladigan "Do'stlik orkestri" loyihasini ishlab chiqing.
	Yaponiyaning "Warabeuta" qo'shiqlari nima?	Ertaklar orqali bolalarda qanday axloqiy fazilatlar tarbiyalanadi?	Bolalarda harakat koordinatsiyasini rivojlantirish uchun musiqiy ritmik mashqlardan 3 ta misol keltiring.	Turli xarakterdagi musiqalarning (quvnoq, sokin, tantanali) bolalar kayfiyatiga ta'sirini tahlil qiling.	Bolalar bog'chasida "Musiqiy dam olish kunlari" loyihasining konsepsiyasini yarating.

13	AQShda "Music Together" dasturi qanday maqsadda qo'llaniladi?	Maqollar bolalar tarbiyasida qanday rol o'ynaydi?	Finlyandiya tajribasidan kelib chiqib, ertalabki doirada (morning circle) o'tkaziladigan musiqiy faoliyatni tavsiflang.	Milliy bayramlarni nishonlash jarayonida bolalarda shakllanadigan milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg'ularining namoyon bo'lishini tahlil qiling.	Turli rivojlanish nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun moslashtirilgan musiqiy o'yinlar katalogini tuzing.
14	Rossiya maktabgacha ta'limida musiqa rahbarining roli qanday?	Inklyuziv ta'limda musiqiy terapiyaning roli nimada?	Singapur tajribasidagi ko'p madaniyatli yondashuvni O'zbekiston sharoitida qanday qo'llash mumkin?	Xalq qo'shiqlari va zamonaviy bolalar qo'shiqlarining tarbiyaviy ta'sirini qiyosiy tahlil qiling.	Maktabgacha ta'limda STEAM yondashuvini musiqiy tarbiya bilan integratsiyalashning mualliflik modelini taklif qiling.
15	Musiqada STEAM yondashuvining asosiy tamoyili nima?	Eshitish qobiliyatida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan musiqiy terapiya qanday maqsadlarni ko'zlaydi?	Yaponiya tajribasidagi Suzuki metodining elementlarini maktabgacha ta'limda qanday qo'llash mumkin?	Eshitish va ko'rish qobiliyatida nuqsoni bo'lgan bolalarning musiqiy idrok etish xususiyatlarini qiyosiy tahlil qiling.	"Bo'lajak tarbiyachilarning musiqiy kompetensiyasini oshirish" trening dasturini ishlab chiqing.
15	"Tovush kashfiyotchilari" mashg'ulotida qanday STEAM elementi mavjud?	Ko'rish qobiliyatida nuqsoni bo'lgan bolalar musiqa orqali atrof-muhitni qanday "ko'rishlari" mumkin?	Rossiya tajribasidagi "ritmik plastika" elementlaridan foydalangan holda mashg'ulot rejasini tuzing.	Maktabgacha ta'limda musiqiy tarbiyaning zamonaviy tendensiyalarini tahlil qiling.	2030-yilgacha O'zbekiston maktabgacha ta'limida musiqiy tarbiyani rivojlantirish strategiyasini taklif qiling.